

XITOY TILINI O`RGANISHDAGI BOSQICHLAR VA HSK IMTIHONLARIIGA TAYYORLANISHDAGI MUHIM JIHATLAR

Mahmudov Muzaffar

UzDJTU 3 – bosqich talabasi

mahmudovmuzaffar248@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada xitoy tilini o`rganishdagi barcha bosqichlar, imtihonlar va hsk imtihoni darajalari haqida ma`lumot berib o`tiladi.

Kalit so`zlar: xitoy tili, hsk imtihonlar, daraja, ierogliflar, yozuv qoidalari, lug`at.

Til o`rganish o`ziga xos qiziqarli jarayon. Dunyodagi eng qiyin tillar reytingida shubxasiz birinchi o`rinni egallaydigan til bu – xitoy tilidir. Xitoy tilida qariyb 87000 ta ierogliflar mavjud. Ko`pgina sohalarda gurkirab rivojlanayotgan Xitoy o`z universitetlariga dunyoning boshqa mamlakatlaridan ko`pgina talaba yoshlarni jalb qilmoqda. Shu sababli hozirgi kunda xitoy tilini o`rganuvchi yoshlar soni ortib bormoqda. Xitoy tilini o`rganish bir muncha murakkab va ko`p vaqt ni talab qiladigan jarayon. Xitoy tilini bilish darjasini aniqlovchi xalqaro imtihon tizimi bu – HSK. HSK – China's Hanyu Shuiping Kaoshi – xitoy tilini egallaganlik darajasini aniqlash uchun o`tkaziladigan imtihon bo`lib, Xitoy Xalq Respublikasining xitoy tilini chet tili sifatida Xitoyda va xorijda o`qitish Davlat qo`mitasi lingvistika, psixologiya va kvalametriya bo`yicha mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilgan. HSK xitoy tilini chet elda amaliy o`qitish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga asoslanib yaratilgan va eski sinov tizimi afzalliklari hamda til o`qitishga oid yangi avlod xorijiy testlarining yutuqlarini o`zida uyg`unlashtirgan. HSK xitoy tili bo`yicha xalqaro malakaviy imtihonni ifodalaydi. Sinov xitoy tili ona tilisi bo`limgan shaxslarning bu tildan hayotda, ta`lim olish va ish faoliyatida foydalanish darajasini tekshiradi. HSK ikki xil variantda o`tkaziladi: yozma va og`zaki.

Yozma imtihon: darajalari, topshirish, baholash tartibi.

Yozma variant quyidagi darajalarga bo`linadi va umumiy 200 – 300 ballik sistemada baholanadi:

- HSK (birinchi daraja) – ishtirokchi xitoy tilidagi eng sodda so`zlarni tushunishi va aloqa bog`lashda qo`llay olishi zarur. 35 daqiqa davom etadi. Nomzod 1 semestr davomida haftasiga 2-3 soat xitoy tili darslariga qatnashgan , 150 tadan ko`p qo`llaniladigan so`z(ieroglif)larni bilishi va tegishli grammatik bilimlarga ega bo`lishi kerak. Imtihon ikki bosqichdan iborat bo`ladi:

- Tinglab tushunish – 4 qism, har bir qismda 5 tadan topshiriq, jami 20 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 o`tish bali;

- O`qish – 4 qism, har bir qismda 5 tadan topshiriq, jami 20 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali.

Agar imtihon topshiruvchi 200 dan 120 ball to`play olsa, imtihondan o`tgan hisoblanadi.

- HSK (ikkinchi daraja) – nomzod taxminan CEFRning “A” darajasiga to`g`ri keladigan bilimlarni egallagan bo`lishi, xitoy tilida elementlar mavzularda so`zlarni tushunishi va yoza olishi, 1 yil davomida haftasiga 2-3 marta xitoy tili darsida qatnashgan hamda 300 ta atrofidagi so`zlarni(ierogliflarni) qo`llashi kerak. Imtihon ikki bosqichdan iborat bo`ladi:

- Tinglab tushunish – 4 qism, har bir qismda 5-10 tadan topshiriq, jami 35 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali;

- O`qish – 4 qism, har bir qismda 5-10 tadan topshiriq, jami 25 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali.

200 dan 120 ball to`plagan ishtirokchi imtihondan o`tgan hisoblanadi. Sinovga 50 daqiqa beriladi.

- HSK (uchinchchi daraja) – “B1” darjasiga to`gri keladi. Bu darajadagi bilimlarga ega bo`lgan kishi xitoy tilida ekskursiya, ish, o`qish va hayotda erkin gaplashish ko`nikmalariga ega bo`lish kerak. 3 semestr davomida darslarda qatnashish va so`z boyligi 600 ta so`z(ieroglif)ni tashkil etishi kerak. Sinov uch bosqichda, 85 daqiqa davomida o`tkaziladi:

- Tinglab tushunish – 4 qism, 40 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali;

- O`qish – 3 qism, har bir qismda 10 tadan topshiriq, jami 30 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali;

- Yozuv – 2 qism, har bir qismda 5 tadan savol, jami 10 ta savol, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali.

Agar imtihon topshiruvchi 300 dan 180 ball to`play olsa, imtihondan o`tgan hisoblanadi.

HSK (to`rtinchi daraja) – imtihon topshiruvchi xitoy tili ona tilisi bo`lgan shaxslar bilan turli mavzularda suhbatlashishi, mulohazalarini erkin bayon etishi va bahslasha olishi kerak. Albatta, 2 yil davomida har hafta 2-3 marta xitoy tili darslarida ishtirok etgan va so`z boyligi 1200 tani tashkil etishi lozim. Imtihonda 3 bosqich, 100 ta topshiriq va 100 daqiqa vaqt beriladi:

- Tinglab tushunish – 3 qism, 45 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali;

- O`qish – 3 qism, 40 ta topshiriq, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali;

- Yozuv – 2 qism, jami 15 ta savol, baholash 100 ball, shundan 60 ball o`tish bali.

Agar imtihon topshiruvchi 300 dan 180 ball to`plasa, imtihondan o`tgan hisoblanadi.

HSK (beshinchi daraja) – “C1” darajaga mos keladi. Bu daraja sohibi ommaga nutq so`zlashi, xitoycha gazeta-jurnallarni o`qishi, teleko`rsatuvlarni tushuna olishi kerak. 2 yildan ko`p muddatda haftasiga 2-4 marta xitoy tilida darslarida qatnashishi va 2500 dan ortiq so`z boyligiga ega bo`lishi zarur.

Sinov 3 bosqich, 100 ta topshiriq va 100 daqiqa:

- Tinglab tushunish – 2 qism, 45 ta topshiriq, baholash 100 ball;
- O`qish – 3 qism, 45 ta topshiriq, baholash 100 ball;
- Yozuv – 2 qism, 10 ta savol, baholash 100 ball.

HSK (oltinchi daraja) – CEFR bo`yicha “C2”, ya’ni professional daraja. 5000 dan ortiq so`zlarni biladigan nomzodalar uchun. Imtihon 101 ta topshiriqdan va uch bosqichdan iborat. 135 daqiqa ajratiladi:

- Tinglab tushunish – 3 qism, 50 ta topshiriq, baholash 100 ball;
- O`qish – 4 qism, 50 ta topshiriq, baholash 100 ball;
- Yozuv – 1 qism, baholash 100 ball.

HSK og`zaki imtihon: darajalar, bosqichlar va baholash.

Sinovning og`zaki varianti 3 ga bo`linadi va imtihon jarayoni diktofonga yozib olinadi:

HSK (boshlang`ich daraja) – CEFRning “A” darajasiga to`g`ri keladi. Nomzod xitoy tilidagi so`zlarni tushunishi va o`z fikrini anglata olishi kerak. 200 dan ortiq so`zni biladiganlar uchun. Imtihon 3 bosqich, 27 topshiriqdan iborat, 7 daqiqualik tayyorgarlik bilan birgalikda 17 daqiqa vaqt ajratiladi. 100 ballik sistemada baholanadi, 60 ball o`tish bali:

- Eshitgan ma’lumotni takrorlash - 15 ta topshiriq;
- Og`zaki savollarga javob berish – 10 ta savol;
- Yozma savollarga javob berish – 2 ta savol.

HSK (o`rta daraja) – “B” darajasiga mos keladi. Imtihon topshiruvchi xitoy tilida so`zlashuvchilar bilan erkin gaplasha olishi va ularni tushuna olishi hamda 900 dan ortiq so`zni bilish kerak. Sinov 3 bosqichdan, 27 topshiriqdan iborat, tayyorgarlik bilan birgalikda 21 daqiqa (10 minut tayyorlanishga) vaqt beriladi. 100 ballda baholanadi, 60 ball o`tish bali:

- Eshitgan ma’lumotni takrorlash – 10 ta topshiriq;
- Berilgan surat haqida hikoya qilish – 2 ta topshiriq;
- Savollarga javob berish – 2 ta savol.

HSK (yuqori daraja) – CEFRning “C” darajasi. Fikrini ochiq-oydin, qiynalmay bayon etadigan, 3000 tadan ortiq so`z biladigan nomzodalar uchun. 3 qism, 6 ta

topshiriqdan iborat, 24 daqiqa (10 daqiqasi tayyorgarlik ko`rish uchun) ajratiladi. Maksimal 100 ball bilan baholanadi, 60 ball o`tish bali:

- Eshitgan ma'lumotni erkin bayon etish – 2 ta topshiriq;
- Ovozni chiqarib o`qish – 2 ta topshiriq;
- Savollarga javob berish – 2 ta savol.

HSK sertifikati chet ellik abituriyentlarni ta'lim xitoy tilida olib boriladigan oly o`quv yurtlariga qabul qilish uchun zaruriy bo`lib, imtihon bo`lib o`tgan kundan boshlab ikki yil muddatda amal qiladi. Umumiyligida qilib aytganda xitoy tilini bilish darajasini aniqlovchi HSK sertifikatini qo`lga kiritish ko`p imkoniyatlarni taqdim etadi. Yurtimizda chet tillarini o`rganishga sharoitlar judaham ko`p. Xitoy tilini o`rganayotgan talabalar soni ham yildan-yilga ortib borayotgani quvonarli hol albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O`zME. Birinchi jild. Toshkent 2000.
- 2.T.P.Zadayenko, Xuan Shuin. “Osnovakitayskovayazika”.
- 3.L.A.Sultanova. J.T.Ziyomuhammedov.M.A.Furatova “Xitoy tili”

Open Conferences